

MAKTAB TA'LIMIDA PUNKTUATSIYANI O'RGATISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Turdiyeva Risliqoy Axroriddin qizi

ToshDO 'TAU Ona tili va adabiyoti ta'limi yo 'nalishi 3-kurs talabasi

@risliqoyturdiyeva@gmail.com. +998932466972

Annotatsiya. Ushbu maqolada punktuatsiyani o'qitishning metodik asoslari, dars jarayonida qo'llaniladigan samarali usullar, o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda tinish belgilarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, punktuatsiya bo'yicha o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, yozma savodxonlik, tinish belgilar, ona tili ta'limi, metodik tavsiyalar, topshiriqlar

Annotation. This article analyzes the methodological foundations of teaching punctuation, effective methods used in the course of the lesson, the role and significance of punctuation marks in the development of written speech of students. It is also thought about the problems faced in the formation of knowledge and skills of students in punctuation and ways to eliminate them.

Keywords: punctuation, written literacy, punctuation, native language education, methodological recommendations, assignments

Punktuatsiya — yozma nutqning mazmunan aniq, grammatik jihatdan to'g'ri va ifodali bo'lishini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Tinish belgilarining o'z o'mida va maqsadga muvofiq qo'llanishi matnning tushunarligini oshiradi, fikrlar orasidagi mantiqiy bog'liqlikni ta'minlaydi. „Agarda tinish belgilari bo'limganda edi, insoniyat yozuv orqali ifodalangan fikrni to'g'ri anglay olmas, boshqalarning nima demoqchilagini bilmasdan qiynalardi. Balki tinish belgilari bo'lmasa, yozuv taraqqiyoti ham bugungi

takomiliga erishmas edi, bizningcha “¹ [Yuldasheva Dilorom Nigmatovna, 2021, 340-bet]. Shu bois, punktuatsiyani o‘rgatish ona tili ta’limining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida boshlang‘ich sinflardan boshlab punktuatsiya elementlarini o‘rgatish, o‘quvchilarda yozma nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchilarning metodik yondashuvi, dars jarayonida qo‘llaniladigan usullar va vositalar muhim rol o‘ynaydi. Xususan, punktuatsiyani semantik, sintaktik va intonatsion qoidalar asosida o‘rgatish, o‘quvchilarning fikrni to‘g‘ri va ravon ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu o‘qitilish bosqichma bosqich takomillashib boradi. Tinish belgilari nafaqat yozma savodxonlik, balki o‘qib tushunish ko‘kmasida ham muhim ahamiyatga ega: o‘quvchi tinish belgilar mohiyatini anglasa, gapni mantiqiy tushunishga ham qiynalmaydi, ikkilanib qolmaydi.

Quyida punktuatsiya unsurlarini o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalar:

1. Sintaksis bilan integratsiya

Punktuatsiyani sintaksis bilan bog‘lab o‘rgatish samarali natijalar beradi. Masalan, gap bo‘laklari, gap turlari va uyushiq bo‘laklar mavzularini o‘rganishda tinish belgilarining qo‘llanilishi tushuntirilsa, o‘quvchilar ularni to‘g‘ri qo‘llashni osonroq o‘zlashtiradilar. Ushbu tavsiya deyarli barcha metodistlar tomonidan tavsiya qilingan va samarali uslublardan biri hisoblanadi.

2. Amaliy mashqlar va diktantlar

O‘quvchilarning punktuatsiya bo‘yicha ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun amaliy mashqlar, diktantlar, ko‘chirib yozish va tahliliy ishlarni muntazam o‘tkazish lozim

3.Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish:

Darslarda ko‘rgazmali vositalar, slaydlar, diagrammalar va interaktiv taqdimotlardan foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jalg‘ etadi va mavzuni yaxshiroq

tushunishga yordam beradi. Xususan, tinish belgilarining qo'llanilishini ko'rsatadigan misollar orqali tushuntirish samarali bo'ladi.

4. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash:

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish punktuatsiya o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Masalan, interaktiv dasturlar, onlayn testlar va mobil ilovalar orqali o'quvchilarning bilimlarini sinab ko'rish mumkin.

Yuqoridagi tavsiyalar ko'plab metodistlar, ekspertlar tomonidan tavsiya etiladi va ba'zilari allaqachon an'anaviy uslublarga aylanib ulgurgan. Undan tashqari mazkur usullardan foydalanish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Amaliyotdan nazariya tomon:

Mashg'ulot mobaynida, o'quvchilarga tayyor tinish belgilari tushirilgan gaplar yoki shunday gaplar bilan to'ldiriklar kartochkalar tarqatiladi va ularning o'zlari ushbu tinish belgilari nima uchun qo'yilish sababini topishlari kerak bo'ladi.

Bu bolalarda oldindan tahmin qila olish va mantiqqa tayanish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchi to'g'ri topsa ham, xato qilsa ham uning yodida yaxshi saqlanishiga yordam beradi.

8. Badiiy asarlar misolida:

O'quvchilarga darsda o'tilgan tinish belgilar qatnashgan gaplarga misollarni o'zlari yoqtirgan yoki o'qiyotgan asarlar ichidan topib kelish topshiriladi.

Mazkur topshiriq berilayotganda badiiy asarlar o'quvchilar ixtiyorida bo'ladi, agarbu o'qituvchi qo'lida bo'lsa asarlar individual(har xil) tanlangani ma'qul, aks holda bolalar orasida ko'chirmakashlik yuzaga kelish ehtimoli bor. Badiiy asarni obyekt qilib olishning foydali tomonlari shundan iboratki: to'liq va yaxlit matndan kichik unsurni qidirganda uning ko'z xotirasida yaxshi saqlanadi, undan tashqari tinish belgilarini qo'llashdagi istisno holatlari, asosan, badiiy asarlarda qo'llanilishi bunday holatlarni oson o'zlashtirishiga yordam beradi.

7. Harakarli o‘yinlar:

Sinfdagisi o‘quvchilardan tinish belgilar soni, xilma-xilligiga qarab 4-5 tasi doskaga chiqariladi. Har biriga bittadan tinish belgisi biriktiriladi(Ra’no – vergul, Asad – qo‘shtirnoq, Gulnoza – tire ...). Ustoz tomonidan tayyor tuzilgan gaplar o‘qib eshteriladi. Bolalar esa shu gapning tinish belgilari qolipini shakllantirishlari kerak.

Bu uslub ko‘pincha mavzuni mustahkamlashda qo‘l keladi, o‘rgatilgan bilimlar takrorlanadi, bolalar o‘zлari harakat qilish jarayonida o‘zlashtirganlarini eslab amaliyotga tadbiq etishga erishadilar, kamchiliklar to‘ldiriladi.

Punktuatsiya darslarini o‘qitishda nafaqat nazariy bilimlar, balki hayotiy, adabiy va axborot matnlaridagi real misollardan foydalanish, o‘quvchining tanqidiy va tahliliy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Yozma nutqda fikrni aniq ifodalash, matn mantiqini saqlash va uslubiy boylikka erishishda punktuatsiya asosiy vositalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, punktuatsiyani o‘qitish samaradorligini oshirish uchun dars jarayonlarini zamonaviy, qiziqarli va maqsadli tashkil etish, o‘quvchilarning fikrlash va ifoda ko‘nikmalarini izchil rivojlantirish zarur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1.YULDOSHEVA DILOROM NIGMATOVNA ONA TILI O‘QITISH METODIKASI(kognitiv-pragmativ yondashuv asosida), Durdona nashriyoti Buxoro-2021.

2. A,G‘ULOMOV, M. QODIROV, M. ERNAZAROVA, A. BOBOMURODOVA, N.ALAVUDDINOVA, V.KARIMJONOVA, ONA TILINI O‘QITISH METODIKASI, Toshkent-2022.

3.Abdusattorova Farangizbonu Azizjon qizi “Boshlang‘ich sinflarda tinish belgilari o‘rgatish uslubiyati”, in-academy.uz